

# FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**47 490**

122,1 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**45 564**

121,2 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


**5 438**

163,7 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oyida)



# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,2** foizga oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 %ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili - (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 96,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 108,1 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 108,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,1** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**14,0** foizga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**21,3** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**11,8** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **2** barobarga oshdi



## Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **1,2** foizga oshdi



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

10



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

11

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**940**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**33**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

**66**



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**146** yashash  
bo'yicha xizmatlar



**2 269**  
Oziq-ovqat  
mahsulotlari va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,2 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 137,8 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 115,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,0 %) o'sishidir.

# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

12




# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


13




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,9 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**33,5**  
foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar




# Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


14



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,0 foizga oshdi*



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



*O'tgan yilga nisbatan 8,3 foizga oshdi*



## Xususiy korxonalar




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 5,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingtaga yoki 142,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 mingtaga yoki 141,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 863 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 389 taga yoki 182,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 22,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 mingtaga yoki 128,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 mingtaga yoki 127,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 mingtaga yoki 159,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra 518 tani tashkil etib, ulardan 505 tasi yoki 97,5 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 117,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 53 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)



**Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


**18**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Belorussiya Respublikasi</b>	7	4	3
<b>Ozarbayjon Respublikasi</b>	6	2	4
<b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	37	29	8
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	14	12	2
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	118	92	26
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	7	6	1
<b>Turkmaniston Respublikasi</b>	1	1	
<b>Ukraina Respublikasi</b>	3	2	1
<b>Armaniston Respublikasi</b>	3	3	

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

19



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	175	232	359	429	505
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	2	4	24	26	26
<b>Sanoat</b>	126	166	210	248	272
<b>Qurilish</b>	4	5	9	12	24
<b>Savdo</b>	14	26	63	75	103
<b>Tashish va saqlash</b>	4	4	6	12	13
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	7	9	13	15	16
<b>Axborot va aloqa</b>	3	2	4	4	4
<b>Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	5	5	7	8	9
<b>Boshqa turlar</b>	10	11	23	29	38

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)


21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>505</b>	<b>327</b>	<b>178</b>
Oltiariq tumani	21	14	7
Qo'shtepa tumani	8	8	0
Bag'dod tumani	14	10	4
Buvayda tumani	10	7	3
Beshariq tumani	7	4	3
Quva tumani	23	14	9
Uchko'prik tumani	18	12	6
Rishton tumani	13	10	3
So'x tumani	5	4	1
Toshloq tumani	16	10	6
O'zbekiston tumani	24	21	3
Farg'ona tumani	24	14	10
Dang'ara tumani	16	8	8
Furqat tumani	7	4	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	169	103	66
Qo'qon shahar	68	41	27
Quvasoy shahar	31	24	7
Marg'ilon shahar	26	18	8

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

22



2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,7 %), Qo'qon shahar (12,4 %), Marg'ilon shahar (9,6 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Oltiariq tumani (4,7 %), Quva tumani (4,7 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,5 %), Toshloq tumani (4,5 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,5 %), Beshariq tumani (3,4 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Qo'shtepa tumani (3,3 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,0 %), Qo'qon shahar (11,1 %), Marg'ilon shahar (7,4 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Toshloq tumani (5,1 %), Oltiariq tumani (5,1 %), Quva tumani (5,4 %), O'zbekiston tumani (4,9 %), Bag'dod tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,7 %), Rishton tumani (4,4 %), Beshariq tumani (4,2 %), Quvasoy shahar (3,5 %), Qo'shtepa tumani (3,8 %), Furqat tumani (3,0 %), Yozyovon tumani (2,9 %), So'x tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

23



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital  
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy  
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

24



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'naliishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports like "E'on qilish taqimi", "Metama'lumotlar", etc. The central part of the page features a search form for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code). A dropdown menu is open, showing options like "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxtatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relezzilar", "Choraklik natijalar", "Nashrlar – statistika haqida", "Usulby materiallar", and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:73 249-87-34**